

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA O‘SMIRLARNING “OMMAVIY MADANIYAT” XURUJIDAN HIMOYALASH VOSITALARI VA USULLARI

Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti (O‘zPFITI) direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10980457>

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar sharoitida o‘smirlarning “ommaviy madaniyat” xurujidan himoyalash vositalari va usullari yoritilgan. Shuningdek, axborotlarning ta’sirini neytrallashtirishga xizmat qiluvchi raqamli texnologiyalar, omillar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, axborot xurujlari, o‘smir, madaniy immunitet, mediavositalar, axborot, ommaviy madaniyat, madaniy qadriyat.

Аннотация. В данной статье описаны средства и методы защиты подростков от нападения «массовой культуры» в условиях цифровых технологий. Также описаны цифровые технологии и факторы, которые служат нейтрализации влияния информации.

Ключевые слова: цифровые технологии, информационные атаки, подросток, культурный иммунитет, СМИ, информация, массовая культура, культурные ценности.

Abstract. This article describes the means and methods of protection of teenagers from the attack of "mass culture" in the context of digital technologies. Digital technologies and factors that serve to neutralize the influence of information are also described.

Keywords: digital technologies, information attacks, adolescent, cultural immunity, media, information, popular culture, cultural value.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo‘lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni ta’lim-tarbiya sohasida joriy etish ham uning tashkiliy funksiyalarini tubdan o‘zgartirmoqda.

Dunyoviy tamaddunga zid harakatlarni amalga oshirish orqali shaxslararo munosabatlarga putur etkazish nazarda tutiladi. Bugungi kunga kelib kompyuter viruslari insonning ijtimoiy, psixologik, biologik sohalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir madaniyatning ikkinchisiga ko‘rsatadigan ta’siri axborot xurujlari orqali amalga oshirilib, deyarli sezilmaydi. Shu tariqa axborot tizimlari muayyan madaniyatning chuqur ildizlariga ta’sir ko‘rsatib, uni parchalash darajasida harakat qilmoqda. Shu tariqa informasion tahdidlar axborot urushiga aylanmoqda. Axborot urushlari birinchi navbatda, millatning axborot tizimlarini mustahkamlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa yoshlar axborot olish, uni saralash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari lozim.

Bugungi kunga kelib axborot urushlari madaniy yo‘nalishga ega bo‘ldi va millatning madaniy ildizlariga ta’sir o‘tkazish orqali uning birligiga putur etkazishga harakat qilmoqda. Axborot vositasida yoshlarning ongiga ta’sir ko‘rsatib, ularning o‘z-o‘zini buzishiga asos bo‘lmoqda. Madaniy immunitet informasion ta’sir va informasion urush tushunchalari bilan bevosita bog‘liq. Yoshlarda madaniy immunitetni hosil qilish uchun ulardagi tajovuzkorlikni aniqlash, informasion tajovuzkorning o‘zini aniqlash, qaysi vositalar va usullar yordamida axborot xurujlari, shuningdek, “ommaviy madaniyat” xurujlaridan kimni va qanday qilib himoyalash lozimligini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

O‘smir yoshlarda tajavuzkorlikning boshlanishini aniqlash oydinlashtirishning oddiy shakli hisoblanadi. O‘smirlardagi tajovuzkorlikni aniqlashda dastlab uning belgilarini

oydinlashtirish talab etiladi. Uni qayta ishlashda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni ajratib olish talab etiladi. Tajovuzkorlikni aniqlashning o‘ziga xos stretegiyalari mavjud. Bunda oldindan ma’lum bo‘lgan bir qator parametrlarga tayaniladi. Tajribada avvaldan mavjud bo‘lmagan aniqlash jarayonida optimal aniqlashtiruvchilarni topish imkonsiz. Ko‘rinib turibdiki, “ommaviy madaniyat” tarafdorlari tomonidan amalga oshirilayotgan axborot xurujlarining qachon, qanday boshlanganligini aniqlash imkonsiz. Bu o‘z navbatida “ommaviy madaniyat” tarafdorlariga muayyan imkoniyatlarni beradi. Bunda “ommaviy madaniyat”ning yoshlar ongiga ko‘rsatadigan ta’sirini miqdor va sifat jihatdan aniqlash murakkab kechadi.

“Ommaviy madaniyat” tarafdorlarini tajovuzini aniqlash bir qadar oson kechadi. Madaniy qadriyatlarni qiyosiy o‘rganish orqali “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchisini aniqlash mumkin. Bunda asosiy narsa “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qiluvchi ma’lumotlarning miqdorini aniqlash talab etiladi. Ma’lumotlarning “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilaridan yoshlarga uzatilishi axborot targ‘ibotining ko‘lamini aniqlash imkonini beradi. Uzatiladigan ma’lumotlarning xarakteridan qat’iy nazar ular yoshlar ayniqsa o‘smirlar ongiga tez ta’sir ko‘rsatib, “ommaviy madaniyat” targ‘ibotini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Ushbu o‘rinda o‘smir yoshdagilarning “ommaviy madaniyat” xurujidan himoyalaniish vositalari va usullarini aniqlash talab etiladi. “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari tomonidan taqdim etilayotgan axborotlarni sifat jihatdan tasniflash, unga qarshi immunitetni xosil qilishga ko‘maklashadi. Mazkur axborotlar foydali yoki zararli, xavfli-xavfsiz bo‘lishi mumkin. Bunday tasnif axborotlardan ximoyalaniish va ximoyalaniish xarakatlarini belgilashga yordam beradi. Himoyalashning texnik vositalari va usullari bugungi kunda “ommaviy madaniyat” xurujlariga etarlicha immunitet xosil qilish imkonini bermaydi. Bu axborotlarning ta’sirini neytrallashtirishga ko‘maklashmaydi. “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilarining asosiy quroli ommaviy mediavositalar hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida “ommaviy madaniyat” ta’siridan himoyalaniish imkoniyatlari etarlicha aniqlanmagan. O‘smir yoshlarda esa “ommaviy madaniyat”dan himoyalaniish immuniteti etarlicha shakllanmagan.

“Ommaviy madaniyat” ta’siridan himoyalaniish unga qarshi immunitetning shakllantirilishi muayyan pedagogik jarayonda amalga oshirilishi lozim. Ushbu jarayonda o‘quvchilarga taqdim etiladigan pedagogik vositalar tanlanishi va tizimlashtirilishi zarur.

Har bir o‘smir o‘quvchi birinchi navbatda o‘zini “ommaviy madaniyat” ta’siridan himoyalay olishi, o‘z-o‘zini himoyalash yo‘llarini bilishi lozim.

O‘smirlar qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni saralay va tasniflay olishlari talab etiladi. Bunday sifatlar o‘smirlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetning yaxlit tizim tarzida shakllanishiga ko‘maklashadi.

O‘smirlar uchun “ommaviy madaniyat”dan himoyalaniish usuli axborotlarni saralab iste’mol qilishni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv “ommaviy madaniyat”ga nisbatan immunitet xosil qilishga ko‘maklashadi.

“Ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitet – intellektning begona madaniyatdan himoyalaniishini ta’minlovchi pedagogik mexanizmdir.

Ongli tarzda qabul qilingan qarorlar o‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun bir laxzalik ongli harakatlarni amalga oshirish sharti bo‘lib, madaniy qadriyatlarining mohiyatini anglashlariga ko‘maklashadi. Asta sekinlik bilan qabul qilingan qarorlar axborotlarning muayyan qismi, intellektning barcha sohalariga etib borib, unda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni xosil qiladi. Shu bilan bir qatorda mazkur axborotlar shaxs ongiga ta’sir ko‘rsatib, uning hissiy

sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, “ommaviy madaniyat” tarafdorlari tomonidan tarqatilyotgan salbiy axborotlar o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda tayanch qadriyatlarni xosil qilish asosida axborotlarning xavflilik va foydalilik darajalarini idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Tayanch qadriyatlar xalqimizning asriy tajribasi, tarixi va madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, shaxs kamolotini ta’minlashga xizmat qiladi. “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari tomonidan tarqatilyotgan axborotlar esa shaxs ongi, uning xissiy intellektual sohalariga ta’sir ko‘rsatadi. Chunki “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari tomonidan taqdim etilyotgan vositalarda emosional bo‘yoqdorlik kuchli bo‘lib, u ayniqsa o‘smir yoshlar ongini tez zabt etadi. Yuqori xissiy ko‘tarinkilik ta’sirida qabul qilingan axborotlarning havflilik darajasi katta bo‘lib, u o‘smirlarning xatti-harakatlarini boshqarish imkoniyatiga ega.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni “ommaviy madaniyat” xurujlaridan himoyalash nafaqat ularning intellektual sohasi, balki xissiy-emosional sohalariga ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshirish lozim. O‘z-o‘zini himoyalash maqsadida namoyon bo‘ladigan xissiy-emosional ta’sirlarning ifodasi sifatida tabassum, zavqlanish, kulgi, qo‘rquv, daxshatga tushish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Himoyaning ongli tarzda amalga oshirilishi hech qanaqa xarajatni talab qilmaydi. Shuning uchun ham u samarali hisoblanadi.

Salbiy axborotlarni qabul qilmaslik, ulardan himoyalanih, ularga tobe bo‘lib qolmaslik muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘zbek xalqining tarixiy tajribasini ongli tarzda o‘zlashtirish asosida o‘z xatti-harakatlarini amalga oshirish, buning uchun zarur bo‘lgan vositalar va ularning mazmun mohiyatini idrok etish talab qilinadi. “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari tarqatilyotgan salbiy axborotlardan himoyalanih nixoyatda zarur. Himoya vositasi esa o‘zbek xalqining tarixiy tajribasi, qadriyatlari, an’analari, urf-odatlar hamda fan-texnika yutuqlari natijasida hosil bo‘lgan umummadaniy boyliklardir. “Ommaviy madaniyat”dan himoyalanih taqozo etilyotgan qatlam o‘smirlar va yoshlardir. Ularning ongi ko‘plab salbiy axborotlar, xatti-harakatlar ifodalangan videoroliklar, ijtimoiy saytlardagi materiallar bilan band qilinmoqda.

Axborot xujumlaridan himoyalanih o‘smirlarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlaridan himoya qilishning bitta shakli bo‘lib, u alohida pedagogik vositalardan foydalanishni taqozo etadi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda xavf-xatarga qarshi tura olish imkonini beradigan immunitetni shakllantirish birinchi darajali ehtiyoj hisoblanadi. Millatimiz vakillarida xulq-atvor stereotiplarini shakllantirishda tarixiy-madaniy qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi. Mazkur qadriyatlar xalq qo‘shiqlari, dostonlari, ertak, maqol va hikmatlarda raqslar va badiiy, tasviriy san’at namunalarida o‘z ifodasini topgan. Ajdodlarimiz merosida xulq-atvor kodeksi darajasidagi qadriyatlar aks etgan. Shunga ko‘ra, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda madaniy xulq-atvor namunalarini shakllantirish, “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni tarkib toptirishda tarixiy madaniy boyliklar muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Madaniy boyliklar avloddan-avlodga til vositasida etib keladi. Shuning uchun ham ko‘p asrlar davomida o‘zbek tilida yaratilgan badiiy adabiyot namunalari va folklor o‘smir yoshdagi o‘quvchilarga madaniy qadriyatlarni singdirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Til millatning o‘zligini anglashiga ko‘maklashuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

REFERENCES

1. Tojiboyeva X.M. Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari: pedagogika fanlari doktori diss. T.: TDPU, 2022-yil. 222 bet.
2. Maxmudov A. X., Anarbayeva F. U. Raqamli ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – S. 476.